

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU
ILMIY
XABARLAR-**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

2-2023

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

M.Nasritdinova	
Artpedagogikaning bo'lajak musiqa ta'limi o'qituvchilari ijodkorlik qobiliyatları rivojidagi imkoniyatlari	312
G.Mo'minova	
Universitet talabalarining so'z o'rganish strategiyalaridan foydalangan holda leksik kompetensiyasini rivojlantirish	390
N.Mamatqulova	
Ta'llimda kredit-modul tizimini qo'llashning ayrim jihatlari	321
U.O'rishov	
Estrada jaz musiqasi evolyutsiyasi va uning nazariy-metodologik asoslari.....	325
S.Uraimov	
Maktabda gipertermiya sharoiti orqali jismoniy tarbiya mashg'ulotlarini monitoring qilish	331
I.I.Toshpulatov	
Inson kapitali nazariyasining shakllanishi va rivojlanishi	334
F.U.Mirjavharova	
Jamiyatda xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlashning ijtimoiy-siyosiy mohiyati	337
M.Y.Isaqov, D.R.Tojiboyev	
O'tloqi-voha tuproqlari tarkibidagi mikroelementlar tahlili va biologik singdirish koeffitsiyenti.	341
I.I.Muhitdinov	
Jinoyat geografiyasi va uning mohiyati, asosiy yo'nalishlari	346
T.X.Tashmetov	
Ijtimoiy tarmoqlardagi yot va zararli g'oyalarning o'ziga xos xususiyatlari	350
D.B.Makhametova	
Ta'llimdagи muqarrar yangi media	355
A.T.Akbarov	
Oilada kattalar sportini tashkillash.....	359
<hr/>	
FANIMIZ FIDOYILARI	
O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan fan arbobi, akademik	
Sayyora Sharafovna Rashidovaning 80 yilligiga	364

**UNIVERSITET TALABALARINING SO'Z O'RGANISH STRATEGIYALARIDAN
FOYDALANGAN HOLDA LEKSIK KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISH**

**DEVELOPMENT OF LEXICAL COMPETENCE OF UNIVERSITY STUDENTS USING
VOCABULARY LEARNING STRATEGIES**

**РАЗВИТИЕ ЛЕКСИЧЕСКОЙ КОМПЕТЕНЦИИ СТУДЕНТОВ ВУЗА С
ИСПОЛЬЗОВАНИЕМ СТРАТЕГИЙ ИЗУЧЕНИЯ СЛОВ**

Mo'minova Gulnoraxon¹

¹ Mo'minova Gulnoraxon

– Farg'ona davlat universiteti tayanch doktoranti.

Anotatasiya

Ushbu tadqiqot so'z o'rganish strategiyalaridan foydalishiga ularning o'quvchilarning leksik bilimlarini rivojlanishiga ta'sirini o'rganish, ishtirokchilar tomonidan eng ko'p va kam qo'llaniladigan so'z o'rganish strategiyalarini aniqlash va o'quvchilarning leksik kompetensiyasini yaxshilash bo'yicha tegishli takliflarni taqdim etishni maqsad qildi. Yuqorida masalalarga javob toppish uchun Farg'ona davlat universitetining 2-kurs bakalavriat bosqichining 100 nafar talabalaridan so'rovnomaga olindi. Ishtirokchilar Shmittning (1997) so'z o'rganish strategiyalarini taksonomiyasidan moslashtirilgan so'z o'rganish strategiyasi so'rovnomasiga javob berishdi. Tajriba-sinov ishi natijalari shuni ko'rsatadi, talabalar yangi so'zlarni o'zlashtirishda xotira va metakognitiv strategiyalardan foydalanishni afzal ko'rishgan. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadi, so'z o'rganish strategiyalaridan foydalishni leksik kompetensiyani rivojlanishiga ijobjiy ta'sir ko'rsatadi. Tadqiqot natijalaridan kelib chiqib, o'qituvchilar va o'quvchilarga leksik bilimlarni yaxshilash yo'llini ochish uchun tegishli takliflar berildi.

Annotation

This study aimed to investigate the use of vocabulary learning strategies (VLS) and their effects on the development of students' lexical knowledge, to identify the most and least used vocabulary learning strategies by the participants, and to improve students' lexical competence. In order to find answers to the above questions, a questionnaire was taken from one hundred second year undergraduate students of Fergana State University. Participants answered the VLS questionnaire adapted from Schmitt's (1997) taxonomy of vocabulary learning strategies. The results of the experiment showed that students preferred to use memory and metacognitive strategies in learning new words. The results of the study showed that the use of VLS has a positive effect on the development of lexical competence. Based on the results of the research, teachers and students were given appropriate suggestions to open the way to improve lexical knowledge.

Аннотация

Это исследование было направлено на изучение использования стратегий изучения словарного запаса (VLS) и их влияния на развитие лексических знаний учащихся, определение наиболее и наименее используемых стратегий изучения словарного запаса участниками, а также на улучшение лексической компетенции учащихся. Для того, чтобы найти ответы на вышеупомянутые вопросы, была взята анкета у 100 студентов бакалавриата Ферганского государственного университета. Участники ответили на вопросник VLS, адаптированный из таксономии стратегий изучения словарного запаса Шмитта (1997). Результаты эксперимента показали, что студенты предпочитали использовать память и метакогнитивные стратегии при изучении новых слов. Результаты исследования показали, что использование ВЛС положительно влияет на развитие лексической компетенции. По результатам исследования преподавателям и студентам были даны соответствующие предложения, открывающие путь к совершенствованию лексических знаний.

Kalit so'zlar: Leksik kompetensiya, lug'atni o'rganish strategiyasi, leksik bilim, lug'at, xotira, metakognitiv, kognitiv, ijtimoiy, determinatsiya strategiyalari.

Key words: Lexical competence, vocabulary learning strategy, lexical knowledge, vocabulary, memory, metacognitive, cognitive, social, determination strategies.

Ключевые слова: лексическая компетентность, стратегия изучения словарного запаса, лексические знания, словарный запас, память, метакогнитивные, когнитивные, социальные, стратегии детерминации.

KIRISH

So'zlarni o'rganish chet tilini o'rganish va o'qitishning asosiy tarkibiy qismidir. O'quvchilarning ingliz tilini biling darajasi rivojlanishi ularning qanchalik leksik bilimga ega ekanligiga bog'liq. Talabalar qanchalik ko'p leksik bilimga ega bo'lsa, shunchalik yuqori akademik ko'rsatkichlarni ko'rsatishlari mumkin.

Leksik kompetensiya deganda muayyan tildagi so'zlarning ma'nosini bilish, so'zlarning bir-biri bilan bog'liqligi va muayyan kontekstda qanday ishlashini tushunish jarayoni tushuniladi. Boy leksik bilimga ega bo'lish o'quvchilarga xorijiy yoki ikkinchi tilda muvaffaqiyatli muloqot qilish imkonini beradi. Biroq, leksik kompetensiyani egallash til o'rganuvchilar so'zlarni eslab qolishda va ularni kontekstda qanday ishlatishni bilmaslikda qiyinchiliklarga duch keladigan qiyin jarayon hisoblanadi. Leksik kompetensiyaning yetishmasligi muloqotda muvaffaqiyatsizlikka va tilning barcha ko'nikmlarida, ya'ni gapirish, tinglash, o'qish va yozishda qiyinchiliklarga olib keladi. Buning sababi yangi so'zlarni o'rganish va o'rgatishda tegishli yordamchi texnikalar, usullar va strategiyalarni qo'llay bilmaslikdir. Ushbu maqola ingliz tili o'rganuvchilarning leksik kompetensiyasini riivojlantirishga yordam beradigan turli xil samarali strategiyalarni taqdim etadi.

Lug'atni o'rganish strategiyalari (Vocabulary Learning Strategy=VLS) o'quvchilarga so'zlarni eslab qolish va xotirada saqlashga yordam beradigan turli xil texnologiyalar to'plamidir. VLSni bilish ularga yanada muvaffaqiyatli o'rganuvchilar bo'lish va tilni yuqori darajada bilish imkonini beradi. Nation (2001) ta'kidlashicha, VLS yordamida keng ko'lamli lug'atga ega bo'lish mumkin.

Tadqiqotning asosiy maqsadlari quyidagilardan iborat:

1. Universitet talabalari tomonidan eng ko'p qo'llaniladigan so'z o'rganish strategiyalarini o'rganish va tahlil qilish;
2. Universitet talabalari tomonidan eng kam qo'llaniladigan so'z o'rganish strategiyalarini o'rganish va tahlil qilish;
3. O'quvchilarning leksik kompetensiyasini oshirish bo'yicha tegishli takliflar berish.

So'z o'rganish strategiyalari va ularning tasnifi

So'z o'rganish strategiyasi til o'rganish jarayonining bir qismi hisoblanadi. Agar o'quvchilar leksik kompetensiyani rivojlantirmoqchi bo'lsalar, ular turli strategiyalardan xabardor bo'lishlari kerak. Catalan (2003, 56) ning ta'rifiga ko'ra, lug'atni o'rganish strategiyasi so'zni o'rganishda qo'llaniladigan mexanizm, shuningdek, noma'lum so'zlarning ma'nosini aniqlash, ularni uzoq muddatli xotirada saqlash, foydalanish uchun o'quvchilar tomonidan amalga oshiriladigan qadamlar yoki harakatlar hisoblanadi.

Cohen tomonidan so'z o'rganish strategiyasi tasnifi

So'z o'rganish strategiyalarini tasniflashning eng dastlabki bosqichlarini Cohen (1990) amalga oshirgan. Uning tasniflash tizimi quyidagicha:

1. So'zlarni eslab qolish strategiyalari: So'zni ona tilidagi so'z tovushiga bog'lash, so'zning bir qismi yoki butun tuzilishini qayd etish, so'zni mavzusiga ko'ra guruhlarga ajratib o'rganish.
2. O'z tahlili. lug'atdan foydalanib so'z qardoshligini aniqlab o'rganish.
3. So'zlarni mashq qilish strategiyalari: kartalardan foydalanish, so'zlarni guruhlash.

Schmitt (1997) tomonidan tasniflash tizimi

So'z o'rganish strategiyalarini tasniflash uchun umumiylashtirish nuqtayi nazaridan eng muhim tasniflardan biri Schmitt (1997) tomonidan amalga oshirildi. Uning tasnifi lug'atni o'rganishning ko'plab jihatlarini o'z ichiga olgan keng qamroviligi bilan ajralib turadi. Schmitt taksonomiysi Oksfordning (1990) toifalash tizimiga asoslangan edi. Schmitt strategiyalarni ikki guruhga ajratdi: a) yangi so'z ma'nosini ochish strategiyalari; b) ma'nolari o'rganilgan so'zlarni mustahkamlash strategiyalari. Oltita toifalar ushbu ikki guruh ostida tuzilgan, jumladan, belgilash, ijtimoiy (ijtimoiy strategiyalar ikkala guruhga tegishli), xotira, kognitiv va metakognitiv.

Nation tomonidan So'z boyligini o'rganish strategiyasining tasnifi (2001; 2005)

Nation so'z o'rganish strategiyalarini uchta umumiylashtirish sifatida Farg'ona davlat universiteti chet tillari fakulteti tanlandi. Nation so'z o'rganish strategiyalarini uchta umumiylashtirish sifatida Farg'ona davlat universiteti chet tillari fakulteti tanlandi. Rejalahtirish toifasi so'zlarni tanlash, so'z bilimi jihatlarini tanlash va takrorlashni rejalahtirish kabi qismlarni o'z ichiga oladi. Manbalar toifasi so'zni tahlil qilish, so'zni kartalar orqali o'rganish, kontekstdan foydalanish, lug'atdan foydalanish, L1 va L2 da mos yozuvlar manbasiga murojaat qilish va L1 va L2da parallellikdan foydalanish uchun yettita kichik toifani o'z ichiga oladi. Jarayonlar toifasi uchta kichik toifadan iborat: belgilash, ma'lumot to'plash va yaratish strategiyalari.

METODLAR

Tajriba sinov bazasi sifatida Farg'ona davlat universiteti chet tillari fakulteti tanlandi. Tajriba sinov ishlarida ikkinchi bosqichida tahsil oluvchi jami 100 nafar talabalar ishtiroy etishdi. Tadqiqotning obyektini amalga oshirish uchun ishtiroychilardan elektron tarzda so'rovnoma olindi. Ishtiroychilar Shmittning (1997) so'z o'rganish strategiyalari taksonomiyasidan moslashtirilgan so'z

o'rganish strategiyasi so'rovnomasiga javob berishdi. Talabalrning mutaxasislik fanlari ingliz tili bo'lganligi sababli, so'rovnoma ham ingliz tilida tuzildi va tushunmovchilikni oldini olish maqsadida talabalarga tushuntirishlar berildi. Quyidagi jadvalda Schmittning so'z o'rganish strategiyalari taksonomiyasi keltirilgan.

1-jadval. Schmitt taksonomiyasi

No	Domains	Items
1	Determination	<ul style="list-style-type: none"> -analyze part of speech -analyze affixes and roots -analyze any available pictures and gestures -guess from textual context -bilingual dictionary -monolingual dictionary -wordlist -flashcard
2	Social	<ul style="list-style-type: none"> -ask the teacher for an L1 translation -ask the teacher to paraphrase or to give a synonym of a new word -ask classmates for the meaning of a new word -discover the meaning through group work activity - study and practice the meaning of new words in pairs or a group in a class - interact with native speakers
3	Memory	<ul style="list-style-type: none"> - study word with a pictorial representation of its meaning - connect a word to a personal experience - associate the word with its coordinates - connect the word to its synonyms - use the new word in a sentence. - study the spelling of a new word - study the sound of a new word - say new words aloud when studying - remember the affixes and roots of new words - remember the part of speech of new words - use physical actions when learning a new word
4	Cognitive	<ul style="list-style-type: none"> - verbally repeat new words several times - write new words several times - use flashcards to remember words - take notes about new words. - use the vocabulary section in my textbook - listen to a CD of word lists - put English labels on physical objects - keep a vocabulary notebook
5	Metacognitive	<ul style="list-style-type: none"> - use English social media (song, films, TV shows, and others). - test myself with word lists - skip or pass new words - continue to study new words over time

So'rovnoma orqali to'plangan ma'lumotlar yukalanib raqamli kodlarga aylantirildi, shundan so'ng Statistical Package for Social Science (SPSS) statistik testlarni amalga oshiruvchi programma orqali natijalar olindi.

Natijalar

Tajriba sinov ishining asosiy maqsadi universitet talabalarining eng ko'p va kam qo'llagan so'z yodlash strategiyalarini aniqlash bo'lib quyida biz dastlab eng ko'p qo'llanilgan strategiyalarni ko'rib chiqamiz

2-jadval. Eng ko'p qo'llanilgan strategiyalar

N	Strategiya nomi	Mean O'rtacha statistic natijasi
1	item 37 (MET) "I continue to study new words over time" Men davomiy ravishda yangi so'z o'rganaman	3.69
2	item 4 (DET) "I guess the meaning of new words from text or context Men yangi so'zni ma'nosini tekst va kontekstdan tushunib olaman	3.58
3	item 34 (MET) " I use English social media (song, films, TV shows, and others)" Men yangi so'zlarni ijtimoy axborot vositalari orqali, masalan qo'shiq, kino, shouular orqali o'rganaman	3.56
4	item 19 (MEM) "I use a new word in a sentence." Men yangi o'rgangan so'zlarimni gaplar tuzib qo'llayman	3.48
5	item 21 (MEM) " I study the sound of a new word" Men yangi so'zlarni tovushlari orqali o'rganaman	3.48
6	item 16 (SOC) " I connect the word to a personal experience" Men yangi so'zlarni shaxsiy tajribalarimga bog'lagan holda o;rganaman7	3.40
7	item 18 (MEM) " I connect a new word to its synonyms" 3.38 Men yangi so'zlarni sinonimlariga bog'lab o'rganaman	3.38

Statistik test najilaridagi yuqori **Mean** ko'rsatkichlariga ko'ra, respondentlar yangi so'zni o'rganishda davom etishni ta'kidladilar. Shu sababli anketaning ushbu bandi o'zbek o'quvchilari orasida eng ko'p qo'llaniladigan strategiya deb topildi. Bundan tashqari, ingliz ijtimoiy tarmoqlari va kontekstdan taxmin qilish ular tomonidan keng tarqalgan strategiyalar deb topildi.

3-jadval. Eng kam qo'llanilgan strategiyalar

N	Strategiya nomi	Mean O'rtacha statistic natijasi
1	item 9 (SOC)"I ask the teacher for the English translation of new words" Men ustozdan yangi so'z tarjimasini so'rayman	1.95
2	item 4 (DET) "I guess the meaning of new words from text or context Men yangi so'zni ma'nosini teks va kontekstdan tushinib olaman	3.58
3	item 34 (MET) " I use English social media (song, films, TV shows, and others)" Men yangi so'zlarni ijtimoy axborot vositalari orqali masalan qo'shiq, kino, shouular orqali o'rganaman	3.56
4	item 19 (MEM) "I use a new word in a sentence." Men yangi o'rgangan so'zlarimni gaplar tuzib qo'llayman	3.48
5	item 21 (MEM) " I study the sound of a new word" Men yangi so'zlarni tovushlari orqali o'rganaman	3.48
6	item 16 (SOC) " I connect the word to a personal experience" Men yangi so'zlarni shaxsiy tajribalarimga bog'lagan holda o;rganaman7	3.40
7	item 18 (MEM) " I connect a new word to its synonyms" 3.38 Men yangi so'zlarni sinonimlariga bog'lab o'rganaman	3.38

Tajriba-sinov ishi natijalari shuni ko'rsatadi, yuqorida keltirilgan eng kam qo'llaniladigan strategiyalarning aksariyati ijtimoiy(Social SOC) strategiyalardir. Mahalliy inglizlar bilan muloqot qilish orqali yangi so'zlarni o'rganish, juftlik yoki guruhlarda mashq qilish eng kam qo'llaniladigan strategiya bo'lib topildi. Bundan tashqari, respondentlar yangi so'zning ma'nosini topish uchun kamdan-kam hollarda o'qituvchilar yoki guruhdoshlaridan yordam so'rashadi. Natijalar shuni isbotladiki, talabalar guruhda ishlashdan ko'ra individual ishlashni afzal ko'rishadi. So'zning ma'nosini topish va eslab qolish uchun kartalardan foydalanish va predmetlarga inglizcha yorliqlar qo'yish ham talabalar tez-tez ishlatmaydigan usullardir.

MUNOZARA VA XULOSA

Ushbu maqola Farg'ona davlat universiteti ingliz tilini mutaxasislik fan sifatida o'rganuvchi talabalarning leksik kompetensiyasini oshirishning ba'zi yo'llari va strategiyalarini o'rganishga qaratilgan. Tadqiqot, shuningdek, respondentlarning eng ko'p va eng kam qo'llagan strategiyalarini aniqladi. Tajriba-sinov ishining natijasi talabalarning so'z o'rganish jarayonida zamonaviy usullarni, ya'ni ya'ngi so'zlarni musiqa tinglash, film ko'rish, ommaviy axborot vositalaridan foydalangan holda, yoki bo'lmasa an'anaviy tarjima usulidan emas, berilgan matndan so'zni ma'nosini aniqlash orqali leksik bilimni rivojlantirishni afzal ko'rishlarini namoyon etdi.

Tadqiqot natijalari ingliz tilini o'rganuvchilarga va o'qituvchilarga quyidagicha tavsiyalarni dars jarayoniga olib kirishni ta'kidlaydi:

- Talabalarning lug'atni o'rganish strategiyalari haqida xabardorligini rivojlantirish.
- Brawn (1993) ta'kidlaganidek, o'qituvchilar o'z o'quvchilarini turli xil strategiyalar bilan tanishtirishi va ularni dars jarayonida va darsdan tashqari mustaqil ravishda qo'llashlariga rag'batlantirishlari kerak.
- O'qituvchilarga o'z darslarida ingliz tilidagi ijtimoiy tarmoqlarning turli shakllaridan foydalanish tavsiya etiladi, chunki talabalar ushbu vositalar bilan ishslashni ma'qul ko'radilar
- O'qituvchilar o'zlarining ta'lim uslublarini o'quvchilarning ehtiyojlari va qiziqishlariga moslashtirishlari muhimdir. Eng ko'p qo'llangan strategiyalarni dars jarayoniga tatbiq etish orqali talabalarning leksik kompotensiyasini rivojlantirishga erishimiz mumkin.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Brawn, H. D. (1987). Til o'rganish va o'qitish tamoyillari. Nyu-Jersi: Prantice Hall regentlari (Brown, H. D. (1987). *Principles of language learning and teaching*. New Jersey: Prentice Hall Regents)
- 2.Catalan, R. M. J. (2003). Ikkinchini til lug'atni o'rganish strategiyalarida jinsiy farqlar. Xalqaro amaliy tilshunoslik jurnali, 13(1), 54-77. (Catalán, R. M. J. (2003). Sex differences in L2 vocabulary learning strategies. *International Journal of Applied Linguistics*, 13(1), 54-77.)
- 3.Cohen, A. D. (1987). Ikkinci til lug'atida og'zaki va tasvirli mnemonikadan foydalanishni o'rganish. Ikkinci tilni o'zlashtirish bo'yicha tadqiqotlar, 9, 43-62. (Cohen, A. D. (1987). The use of verbal and imagery mnemonics in second language vocabulary learning. *Studies in Second Language Acquisition*, 9, 43-62.)
- 4.Emrah, E. va Ismoil, Y. (2014). Onlayn orqali talabalarning leksik kompetensiyasini rivojlantirish mashq qilish. Xalqaro ijtimoiy tadqiqotlar jurnali, 7(31) (Emrah, E., & Ismail, Y. (2014). Developing students' lexical competence through online exercise. *The Journal of International Social Research*, 7(31))
- 5.Gulnoraxon Mo'minova. (2022). Koreys tilining lug'at o'rganish strategiyalari bo'yicha tadqiqot va o'zbek tilini o'rganuvchilar. Frontline ijtimoiy fanlar va tarix jurnali, 2(02), 39–46. (Gulnorakhon Muminova. (2022). An investigation into vocabulary learning strategies of Korean and Uzbek learners of English. *Frontline Social Sciences and History Journal*, 2(02), 39–46.)
- 6.Qaxarova, M. (2021). O'ZBEK TILINI ME'NAT ETGAN LEKSEMA LARNING MIKRO MAYDON XALQ BAYRAMLARI VA MEHNAT MAROSIMLARI. NAZARIY VA AMALIY SCIENCE Hujjatlari: Nazariy va amaliy fanlar,(9), 646-648. (Kaharova, M. (2021). MICRO FIELD OF LEXEMES WHICH DENOTE UZBEK PEOPLES'HOLIDAYS AND WORK CEREMONIES. THEORETICAL & APPLIED SCIENCE Founders: Theoretical and Applied Science,(9), 646-648.)
- 7.Qaxarova, M. va Yusupova, D. (2022). Dars rejasiga yangi yondashuvlar. Yevropa jurnali Gumanitar fanlar va ta'lif yutuqlari, 3(1), 40-42. (Kakharova, M., & Yusupova, D. (2022). New Approaches To Lesson Plan. European Journal of Humanities and Educational Advancements, 3(1), 40-42.)
- 8.Qaxarova, M. M. (2020). Matn ustida ishslash. Academika: xalqaro multidisipliner tadqiqot jurnali, 10(12), 489-491. (Kaxarova, M. M. (2020). Working on text. *Academica: an international multidisciplinary research journal*, 10(12), 489-491.)
- 9.Mo'minova, G. (2022, fevral). Lug'atni o'rganish strategiyasidan foydalanishga ta'sir qiluvchi omillar. Ta'lif va ijtimoiy fanlar bo'yicha xalqaro konferensiya jurnali, 2(2). (Mo'minova, G. (2022, February). Factors affecting vocabulary learning strategy use. *International journal of conference series on education and social sciences*, 2(2).)
- 10.Mo'minova, G. (2022). CHET TILNI O'QITISH VA O'RGANISHDA LEKSIK KOMPETENSIYANI RIVOJLANIRISHNING AHAMIYATI. 21-ASRDA INNOVATION TA'LIMNING O'RNI VA AHAMIYATIGA BASHLANGAN XALQARO KONFERENSIYA, 1(2), 19-22. (Muminova, G. (2022). THE IMPORTANCE OF DEVELOPING LEXICAL COMPETENCE IN TEACHING AND LEARNING A FOREIGN LANGUAGE. *INTERNATIONAL CONFERENCE DEDICATED TO THE ROLE AND IMPORTANCE OF INNOVATIVE EDUCATION IN THE 21ST CENTURY*, 1(2), 19-22.)
- 11.Nation, P. (1995). Lug'atni o'rgatish va o'rganish bo'yicha eng yaxshi tajribalar. EA Journal, 13(2), 15. (Nation, P. (1995). Best practices in vocabulary teaching and learning. *EA Journal*, 13(2), 15.)
- 12.Schmitt, N. va Meara, P. (1997). So'zdan iborat bilim doirasi orqali lug'atni o'rganish: so'z birikmasi va og'zaki qoshimcha. Ikkinci tilni o'zlashtirish bo'yicha tadqiqotlar 19, 17-36 (Schmitt, N., & Meara, P. (1997). Researching vocabulary through a word knowledge framework: word association and verbal suffix. *Studies in Second Language Acquisition* 19, 17-36)
- 13.Zilola, P. (2022). Barqaror birlıklarni amalgalash. Amerika ijtimoiy va gumanitar tadqiqotlar jurnali, 3(10), 117-121. (Zilola, P. (2022). Realization of Stable Units. *American Journal of Social and Humanitarian Research*, 3(10), 117-121.)
- 14.Pazilova, Z. Sh. (2022). O'ZBEK VA NEMAN XALQLARIDA BOLALIK DAVRANI LEKSIK FOTOLARINING XUSUSIYATLARI. OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI, 122. (Пазилова, З. Ш. (2022). SPECIFIC CHARACTERISTICS OF LEXICAL EXPRESSIONS OF CHILDHOOD PERIOD IN UZBEK AND GERMAN PEOPLE. MINISTRY OF HIGHER AND SECONDARY SPECIAL EDUCATION FARG'ONA STATE UNIVERSITY, 122.)